
Ajdodlarni xotirasini qadrlash muqaddas burchimiz!

Buvayda tumani prokurori Z.M.Sulaymonov tashabbusi va sayi'-harakatlari bilan 2-sektorda joylashgan Urganji mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi "Xo'ja Muhammad Bobosammosiy" ziyoratgohi mahalla faollari homiyligida qayta rekonstruksiya qilinib, foydalanishga topshirildi.

E'tiborli jixati shundaki, dasturlarsiz, mahalla aholisining hamjixatligi, tashabbuskorligi, tadbirkorlarning homiyliги hamda tuman rahbarlarining qo'llab -quvvatlashi natijasida qisqa muddatda, ya'ni, 2 oy ichida hashar yo'li bilan bunyod etildi.

Shuningdek, "Qurbon hayiti" munosabati bilan 12.06.2024 yil kuni viloyat prokurorining o'rinbosari O.Toshmatov va sektor rahbarlari ishtirokida imom xatiblar hamda mahalla aholisiga bayram dasturxonini tashkil etildi.

2024-06-14 10:43:29